

**BOLALAR OFTALMOXIRURGIYASIDA UMUMIY INGALYASION ANESTEZIYANING
AFZALLIKLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10716082>

Sharipov I.L

Pardaev SH.K

Raxmiddinova Ch

Samarqand davlat tibboiyot universiteti, anesteziologiya, reanimatsiya va shoshilinch tibbiyot kafedrası. Samarqand, O'zbekiston.

Rezedual ensefalopatiya (RE) va oftalmoxirurgik patologiyasi bo'lgan bolalarda 34 anesteziologik qo'llanmaning klinik tahlili o'tkazildi. Turli yoshdagi bolalarda kognitiv disfunktsiyalar chastotasi, talvasa reaksiyalar va gipertoniya sindromining namoyon bo'lishi qiyosiy tarzda o'rganildi. Operatsiyadan keyingi kognitiv disfunktsiyalarning ko'proq namoyon bo'lishi 6 yoshgacha bo'lgan guruhidagi bolalarda qayd etildi. Izooflyuranni RE - bo'lgan bolalarda oftalmologik operatsiyalar paytida asosiy anestetik sifatida ishlatish zamonaviy anesteziologiyada samarali usullardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *anesteziya, izooflyuran, bolalar rezedual ensefalopatiyasi, oftalmologiya.*

**ПРЕИМУЩЕСТВА ОБЩЕЙ ИНГАЛЯЦИОННОЙ АНЕСТЕЗИИ У ДЕТЕЙ В
ОФТАЛЬМОХИРУРГИИ**

Шарипов И.Л

Пардаев Ш.К

Рахмиддинова Ч

Самаркандский государственный медицинский университет, кафедра анестезиологии, реаниматологии и неотложной медицины. Самарканд Узбекистан

Проведен клинический анализ 34 анестезиологических пособий у детей с РЕ и - офтальмохирургической патологией. У детей различных возрастов исследовалась в сравнительном аспекте частота когнитивных

дисфункций, проявление судорожных реакций и гипертензионного синдрома. Отмечено более частое проявление послеоперационных когнитивных дисфункций у детей в возрастной группе до 6 лет. Применение изофлюрана, как основного анестетика при проведении офтальмологических операций у детей с РЕ, является оптимальным пособием в современной анестезиологии.

Ключевые слова: *анестезия, изофлюран, резедуальная энцефалопатия у детей, офтальмология.*

ADVANTAGES OF GENERAL ANESTHESIA WITH ISOFLURANE IN CHILDREN WITH RESIDUAL ENCEPHALOPATHY IN OPHTHALMIC SURGERY.**Sharipov I.L., Pardaev Sh.K., Raxmiddinova Ch.***Department of Anesthesiology, Resuscitation and Emergency Medicine of the Samarkand State Medical University Samarkand Uzbekistan*

A clinical analysis was conducted on 34 anesthesia procedures in children with residual encephalopathy (RE) and ophthalmic surgical conditions. In a comparative aspect, the frequency of cognitive dysfunction, the manifestation of seizure reactions, and hypertensive syndrome were investigated in children of different age groups. It was noted that postoperative cognitive dysfunction occurred more frequently in children under the age of 6. The use of isoflurane as the primary anesthetic in ophthalmic surgeries in children with RE is considered the optimal approach in modern anesthesiology.

Key words: *anesthesia, isoflurane, childhood residual encephalopathy, ophthalmology.*

Dolzarbligi. Bolalar rezidual ensefalopatiyasi (RE) asab tizimi kasalliklari tuzilmasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bolalar RE–bosh miyani homiladorlik va tug'ruq vaqtida jarohatlanishi yoki rivojlanmay qolishi hisobiga kelib chiqadigan juda ko'p kasalliklarni o'z ichiga oluvchi kasalliklar guruhidir. RE ning klinik ko'rinishlari rivojlanayotgan bosh miya faoliyatining o'zgarishi bilan aniqlanadi[5].

RE ning rivojiga homila ichi davrda, tug'ish davrida va erta tug'ruqdankeyingi - davrlardagi (gipoksiya, infeksiya, shikastlanish) va boshqa turli xil salbiy omillar sabab bo'ladi. RE chastotasi 1000 ta yangi tug'ilgan chaqaloqqa 2-5 holat to'g'ri keladi. G'ilyalik va ambliopiyada RE bo'lgan bolalarda ko'rish analizatorining eng ko'p zararlanishi kuzatiladi. RE bo'lgan bolalardagi psixologik muloqotning qiyinligi, intellektual etishmovchilikning mavjudligi ularni davolanish korreksiyasini qiyinlashtiradi. Bu esa shifokorlarga ular bilan ishlashida qo'shimcha qiyinchiliklarni tug'diradi[1].

Yuqoridagilarga asoslanib, vrach anesteziologlar tomonidan anesteziologik qo'llanma usulini va anesteziyaning har bir bosqichida mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olishda ancha murakkab vaziyatga duch keladilar. Avvalo, bu umumiy anesteziya uchun dorilarning kognitivfaoliyatlari va hayot tarzi buzilgan markaziy asab tizimiga salbiy ta'siri bilan bog'liq. Shu munosabat bilan umumiy anesteziya oqibatida kelib chiqadigan asoratlar muammosi, anesteziya va intensiv terapiyasida dolzarb bo'lib qolmoqda [2].

MAQSAD

Oftalmoxirurgik amaliyotda RE bo'lgan bolalarning turli yosh guruhlarida izofluran bilan ingalyasion anesteziyaning klinik xususi- yatlarini o'rganish.

MATERIAL VA USULLAR

Samarqand viloyat ko'p tarmoqli bolalar tibbiy markazida turli oftalmoxirurgik va RE patologiyali 34 bolalarda anesteziologik amaliyotning klinik tahlili o'tkazildi. Ularning yoshi 1,5 oydan 17 yoshni tashkil qildi. Barcha operatsiyalar 2017 - 2022 yillar o'rtasida amalga oshirildi. Bu bolalarning hammasi shartli ravishda ikki guruhiga bo'lindi: 6 oydan 6 yoshgacha (18 bola) va 7 yoshdan 17 yoshgacha (16 bola). Ikkala guruhda ham umumiy - ingalyasion anesteziyaning endotraxeal usuli bilan amalga oshirildi. Anesteziya va o'pka sun'iy ventilyasiyasi adekvatligini nazorati klinik belgilarga ko'ra va doimiy monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Ikkinchisi o'z parametrlari ro'yxatga pulsoksimetriya (SpO_2 , yurak urish tezligi), qon bosimini noinvaziv o'lchash (SAB, DAB, O'rAB), ventilyasiya rejimi, kapnografiya kiritilgan. Kognitiv disfunktsiyalar chastotasi, talvasa reaksiyalari va - gipertoniya sindromining namoyon bo'lishi qiyosiy tarzda o'rganildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Barcha bemorlarga qabul qilingan standart premedikatsiyadan foydalanilgan. Shu tufayli bu tartibdagi premedikatsiya har doim ham bolada etarli darajada sedatsiya holati bo'lmagani uchun biz kichik yoshdagi bolalarda operatsion xonada vena punktsiyani amalga oshirish imkonini beruvchi quyidagi - premedikatsiyani qo'lladik. Bu yuz niqobi orqali ikki daqiqadan kam vaqt davomida izoofluran dastlabki ingalyasiyani va standart premedikatsiyadan foydalanildi. Barcha - holatlarda propofol (diprivan) yordamida yoki yuz niqobi orqali izoofluran bilan induksiyada yaxshi natijaga erishildi. Ushbu qo'llanmadan foydalanish jarrohlik amaliyotining barcha bosqichlarida anesteziyaning zarur chuqurlik va silliq kechishiga imkon berdi. Lekin, birinchi guruhdagilar orasidan uyg'onish bosqichida operatsiyadan keyingi kognitiv disfunktsiya - (OKKD) ancha ko'proq uchradi. Ular 30% hollarda agressiv xulq-atvorda, joy va vaqtdagi dezorientatsiyada, xulq-atvor reaksiyalarining buzilishida ifodalandi. Kichik yoshli guruh bolalarida bunday reaksiyalarning davomiyligi 30 minutdan 2 soatgacha davom etgan. Ikkinchi guruhda kognitiv buzilishlar ham sodir bo'lgan, lekin 5% ga yaqin holatni tashkil etgan. Vaqt davomiyligi va intensivligi kamligining farqi o'rtacha 15- 60 daqiqani ko'rsatdi. Adabiyotlarga ko'ra, ketamin, etomidat kabi preparatlarini qo'llash, harakat reaksiyalari, talvasalar, gipertenziv sindrom, laringospazm, qusish va ko'z ichi bosimining nisbatan ko'tarilishiga, shuningdek, uyg'onish davrining uzayishiga olib kelishi mumkin [4,6].

Aksincha, izoofluranni RE bilan og'rikan bolalarda asosiy anestetik sifatida ishlatish tajribamiz ko'rsatganidek, barcha salbiy ko'rinishlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi. Gipertenziya sindromi yoki talvasa reaksiyalarning namoyon bo'lishi guruhlarining hech birida kuzatilmadi.

XULOSALAR

1. Izooflyuran yordamida anesteziologik qo'llanmani amalga oshirish REga chalingan bolalarning ikkala yosh guruhida ham oftalmo xirurgik amaliyotni amalga oshirishda yuqori darajadagi anesteziyaga erishilganlik va xavfsizlikni ko'rsatdi.

2. Erta operatsiyadan keyingi davrda kichik yosh guruhida OKKDning klinik ko'rinishlari rivojlanib borganligi kayd etildi.

3. Birinchi guruhdagi OKKD yuqori chastotasi va namoyon bo'lish darajasi bizning fikrimizcha, birinchidan, bolalarning dastlab noqulay psixo-

emotsional va nevrologik holati bilan, ikkinchidan, bu guruhning raqamlardagi ustunligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (birinchi guruhda, 6 oydan 6 yoshgacha 18 ta bolalar va ikkinchi guruhda 7-17 yoshdagi 16 bolalar).

4. Shunga qaramay, bizning fikrimizcha, RE bo'lgan bolalarda oftalmoxirurgik operatsiyalar paytida zamonaviy anesteziyaning optimal qo'llanmasi oftalmoxirurgiya va umuman bolalar xirurgiyasida izooflyu-

ranni asosiy anestetik sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Bu boshqa anestetiklarga xos bo'lgan barcha salbiy reaksiyalarni operatsiya vaqtida va undan keyingi davrda kamaytirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Айзенберг В. Л., Диордиев А. В., Салмаси К. Ж. Реакции центральной гемодинамики на физическую нагрузку у больных с детским церебральным параличом как возможность выбора способа анестезии и прогнозирования ее течения. *Анестезиология и реаниматология*. 2009;1:14–17

2. Семенихин А.А., Матлубов Мансур Муратович, Ким О.В. Оценка эффективности центральных (нейроаксиальных) блокад у пациенток с ожирением и сниженными коронарными резервами при абдоминальном родоразрешении // Регионарная анестезия и лечение острой боли. 2016. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-tsentralnyh-neyroaksialnyh-blokad-u-patsientok-s-ozhireniem-i-snizhennymi-koronarnymi-rezervami-pri-abdominalnom> (дата обращения: 03.05.2022).

3. Диордиев А.В., Айзенберг В.Л., Виноградов А.В., Вайнштейн Д.П., Шагурин Р.В. Анестезия при хирургическом лечении у больных с церебральным параличом (обзор) // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. — 2012. — №7, Вып. 2. — С. 41-46.

4. Лекманов А.У., Суворов С.Г., Розанов Е.М., Александров А.Е., Хмызова С.А. - Современные подходы к выбору метода анестезиологического пособия у детей. - *Анестезиол. и реаниматол.* 2002;(1):12–4.

5. Лихванцев В.В., Ситников А.В. Первый опыт применения севофлюрана. *Анестезиол. и реаниматол.* 2005;(2):23–5.

6. Марочков А.В., Шамшур А.Н., Липницкий А.Л. Опыт применения севофлюрана и галотана при общей анестезии у детей. *Анестезиол. и реаниматол.* 2010;(1):10.

7. Шарипов Исроил Латипович. Снижение интоксикации сочетанными методами экстракорпоральной детоксикации при почечной недостаточности у детей. // Детская хирургия. 2014. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/snizhenie-intoksikatsii-sochetannymi-metodami-ekstrakorporalnoy-detoksikatsii-pri-pochechnoy-nedostatochnosti-u-detey> (дата обращения: 03.05.2022).

8. Шарипов И.Л. Оценка сочетанного применения методов экстракорпоральной детоксикации у детей с почечной недостаточностью / И. Л. Шарипов // Врач-аспирант. – 2012. – Т. 54. – № 5.2. – С. 332-341. – EDN PFGJLD.

9. I.L Sharipov, JT Yusupov, BK Xolbekov Personalization and preventative premedication: used drugs value and efficiency //Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3 (02), 740-748.

10. Sharipov, I. Hemodynamic gradations with combined use of extracorporeal detoxification methods in children with renal failure / I. Sharipov, B. K. Xolbekov, B. R. Akramov // European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – Vol. 7. – No 3. – P. 2555-2563. – EDN PPDWZO.

11. Sharipov, I. Hemodynamic gradations with combined use of extracorporeal detoxification methods in children with renal failure / I. Sharipov, B. K. Xolbekov, B. R. Akramov // European Journal of Molecular and Clinical Medicine. – 2020. – Vol. 7. – No 3. – P. 2555-2563. – EDN PPDWZO.

12. Курбонов, Н. З., Пардаев, Ш. К., & Матлубов, М. М. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКОГО ПОСОБИЯ ПРИ СИМУЛЬТАННЫХ ОПЕРАЦИЯХ НА ОРГАНАХ БРЮШНОЙ ПОЛОСТИ. Uzbek Scholar Journal, 10, 52-56.

13. Zayniddinovich, Q. N., & Qo'yliyevich, P. S. (2022). QORIN BO'SHLIG'I SIMULTAN OPERATSIYALARDA ANESTEZIOLOGIK YONDOSHUV SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. Journal of Integrated Education and Research, 1(5), 116-121.

14. Kh, G. N., Kurbonov, N., Kh, K. E., & Matlubov, M. M. (2022). Optimization of Anesthesiological Approach for Recurrent Ventral Hernia in Obesity Patients. Texas Journal of Medical Science, 8, 10-14.

15. Kurbonov, N. Z., Raxmatov, F. I., & Giyosov, N. (2021). Optimization Of Anesthesia During Simultaneous Operations. Texas Journal of Medical Science, 3, 52-54.

16. Zayniddinovich, K. N., Qo'yliyevich, P. S., & Muratovich, M. M. (2022). OPTIMIZATION OF ANESTHESIOLOGICAL APPROACH IN RECURRENT ABDOMINAL HERNIA SURGERY IN PATIENTS WITH THIRD-DEGREE OBESITY. Journal of new century innovations, 18(1), 188-194.

17. Курбонов, Н. З. (2022). ОПТИМИЗАЦИЯ АНЕСТЕЗИОЛОГИЧЕСКОГО ДОСТУПА ПРИ ХИРУРГИИ РЕЦИДИВА ВЕНТРАЛЬНОЙ ГРЫЖИ У ПАЦИЕНТОВ С ОЖИРЕНИЕМ И АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 431-439.

18. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). STABILIZATION OF ANESTHETIC SUPPORT DURING SIMULTANEOUS ABDOMINAL AND PELVIC OPERATIONS. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI, 3(6), 122-124.

19. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). Improving the efficiency of anesthetic access during simultaneous abdominal and pelvic surgeries in patients with concomitant arterial hypertension. IQRO, 3(1), 12-15.

20. Zayniddinovich, K. N., & Kuilievich, P. S. (2023). OPTIMIZATION OF ANESTHETIC SUPPORT DURING SIMULTANEOUS OPERATIONS ON THE ABDOMINAL AND PELVIC

ORGANS. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 331-334.

21. Sharipov, I. L., Xolbekov, B. K., & Kurbonov, N. Z. (2023). BOLALAR OFTALMOLOJARROHLIGIDA ANESTEZIYANI TAKOMILLASHTIRISH. World scientific research journal, 20(1), 107-112.

22. Kurbanov, N. Z., & Sharipov, I. L. (2023). IMPROVEMENT OF ANESTHETIC PROTECTION IN SIMULTANEOUS OPERATIONS ON ABDOMINAL AND PELVIC ORGANS. World scientific research journal, 20(1), 113-116.

23. Zayniddinovich, K. N., & Latibovich, S. I. (2024). IMPROVING ANESTHETIC PROTECTION AND BLOOD PRESSURE CONTROL IN SIMULTANEOUS ABDOMINAL AND PELVIC OPERATIONS IN OBESE PATIENTS. JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCES, 7(1), 97-101.

24. Sharipov, I. L., Qurbanov, N. Z., & Rakhmonov, S. (2023). IMPROVING AIRWAY PATENCY DURING OPERATIONS IN THE MAXILLOFACIAL REGION IN CHILDREN. Academia Repository, 4(12), 140-145.

25. Zayniddinovich, K. N., Qo'lyiyevich, P. S., & Latibovich, S. I. (2023). INCREASING ANESTHESIOLOGICAL PROTECTION DURING SIMULTANEOUS OPERATIONS ON THE ABDOMINAL AND PELVIC REGION IN PATIENTS WITH OBESITY. Academia Repository, 4(11), 321-325.